



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA ISLOM BANK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Oybek Axmatdjonov¹, Sardorbek Ismoilov², Raxmatillayev Shahzodjon³

Qo‘qon universiteti Iqtisodiyot va Turizm kafedrasida o‘qituvchisi¹

Qo‘qon universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi^{2,3}

INFO:

Qabul qilindi: 31.02.2022
Ko‘rib chiqildi: 02.01.2022
Chop etildi: 02.01.2022

Kalit so‘zlar: islom banki, islom moliyasi, mudoraba, mushoraka, ana’anaviy kreditlash, islom oynasi, sokuk, ijara, salam

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada islom bank mahsulotlari va xizmat turlarining ana’naviy bank xizmat turlaridan farqlari, shuningdek, afzalliklari va tobora ungan bo‘lgan qiziqishlarning asosiy sabablari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda islom bank xizmatlari bozorini rivojlantirish borasidagi ilk qadamlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

KIRISH

Islom diniga e’tiqod qiluvchilar ko‘pchilikni tashkil qilishiga qaramay, O‘zbekistonda shu vaqtgacha Islomiy moliya sohasi Markaziy Osiyodagi qo‘shni mamlakatlarga qaraganda deyarli rivojlanmagan, vaholanki ushbu sohaning rivojlanishida mamlakat juda katta salohiyatga ega. Buni yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Islom Taraqqiyot Banki Guruhi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki va b.) ekspertlari tomonidan e’tirof etgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham 2020 yil 29 dekbrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi" deb, ta'kidlagan edilar.

Bank-moliya tizimidagi xalqaro tanazzul oqibatida va moliya bozori infratuzilmasining tubdan takomillashtirishga bo'lgan extiyoj samarasi o'laroq, investitsiyaviy moliyalash hamjamiyatining moliyalashtirishning islomiy shakliga bo'lgan e'tibori sezilarli darajada ortdi.

Zamonaviy sharoitda global miqyosda islomiy moliyalashtirish segmenti eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi: «banklarning spekulyativ faoliyati tanazzuli vaqtida islomiy institutlari foydasi yiliga 15-20 foizga, aktivlari esa 20 foizdan ziyod o'sib bormoqda va 2020 yil uchun Islom dunyosining global bank aktivlarining yillik aylanmasi 1300 milliard dollardan ortiqroqqa baholanmoqda.

Islomiy bank ishining etarlicha intensiv rivojlanishiga talabning ortishi va musulmon davlatlari tomonidan moliyaviy resurslarning sezilarli darajada to'planishi sabab bo'ladi. Arab davlatlarining moliya bozorlari faol rivojlanib borayotgani va g'arbiy kompaniyalar o'rtasida xorijiy investorlarni jalb qilish uchun raqobat mavjudligini hisobga olsak, islomiy banklarning o'sish tendentsiyasi davom etishini ta'kidlash mumkin. Bu islomiy banklar faoliyatini yanada kengroq tahlil qilish, shuningdek ularning moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur shartlarni belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu doirasida olib borilgan tadqiqot natijasida olimlarning islomiy bank to'g'risida berilgan ta'riflarini tahlil qilib, islomiy bank xizmatlari va islom banki bo'yicha qo'yidagicha ta'rifni tuzish mumkin.

Islomiy bank xizmatlari – tijorat banklari qoshida alohida bo'lim yoki filial ko'rinishida tashkil qilingan bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarga islom shariati asosida ko'rsatiladigan bank xizmatlari majmuidir.

Islomiy bank –“Islom shariati asosida bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga pul mablag'larini jalb etish, jismoniy va yuridik shaxslarni moliyalashtirish hamda boshqa bank xizmatlarini amalga oshiruvchi tijorat tashkilotidir”. Shariat (Islom dini qonunlari majmuasi) ushbu operatsiyalarning qonuniy bo'lishini talab qiladi. Ya'ni, shariat tomonidan ruxsat beriladigan jamiyat uchun xavfsiz bo'lgan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtiradi va har qanday operatsiyalar bo'yicha foizlarni to'lash yoki olishni taqiqlaydi (Bashir, Xassan, 2004).

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini o'rganib ,xulosa qiladigan bo'lsak, islomiy bank shariat tamoyillari asosida mijozlarga xizmat ko'rsatadigan tijorat tashkilotidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarida islom bank darchalarini tashkil etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikrmulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turli so'rovnomalar va tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, ko'pchilik islomiy va an'anaviy banklar

tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar va bank xizmatlar o'rtasidagi tafovutni to'liq talqin qilib berolmaydi. Ayrimlar islom banklari tomonidan taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar hozirgi kunda mavjud an'anaviy bank mahsulot va xizmatlarining shunchaki nomini o'zgartilgan shakli ekanligini ta'kidlasalar, boshqalari islom banklari an'anaviy banklar tomonidan belgilangan "foiz"ni "daromad" deb nomlashadi va shunchaki, mijozlarni o'ziga jalb qilish uchun arabcha atamalar bilan nomlanganligini iddao qilishadi. Islom banklari faoliyatining qanday tashkil etilganligi va qanday asoslarga muvofiq olib borilishi bilan yaqindan tanishib chiqmay turib, bu kabi fikrlarni bildirish juda katta xatolik sanaladi. Chunki bunday xulosa va fikrlar islom bank xizmatlari bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Albatta, islom bank xizmatlari va mahsulotlari bozori rivoji jarayonida turli muammolarga duch kelayotganligi ham ayni haqiqat. Chunki bu soha hali to'liq o'rganib bo'lingani yo'q. Ushbu jarayon davomida xatolar yuz berishini inkor etib bo'lmaydi.

Jamiyat, an'anaviy bank tizimida amal qiluvchi mijoz/omonatchi – bank, qarz oluvchi – bank kabi, asosan bank manfaatini ko'zlovchi moliyaviy munosabatlar, hamda islom bankchiligidagi ikki tomonning (ya'ni mijoz va bankning) birgalikdagi manfaatini inobatga oluvchi "mushoraka" (loyihalarni sarmoyaviy sherikchilik asosida moliyalashtirish), "murobaha" (oldi-sotdi shartnomasi orqali moliyalashtirish), "mudoraba" (loyihalarni ishonch asosidagi hamkorlik doirasida moliyalashtirish) "ijara" (ijara/lizing shartnomasi asosida moliyalashtirish), "istisna" (ishlab chiqarish sohasi loyihalarini moliyalashtirishga asoslangan shartnoma), "salam" (asosan qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan, oldindan moliyalashtirishni ko'zda tutuvchi shartnoma), "sukuk" (qimmatli qog'ozlar yordamida moliyalashtirish) kabi iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik munosabatlari o'rtasidagi farqni anglashi va ikki tomon uchun ham birdek manfaatli bo'lgan bunday tizim, zamonaviy bank-moliya sohasini rivojlanishiga ham yordam berishi mukinligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Islom banklari o'z mijozlari bilan hamkorlik qilish orqali ular bilan tadbirkorlikning har qanday turiga xos bo'lgan xatarlarni bo'lishishini, xatarlarni bo'lishish darajasi esa loyihalashtirilayotgan tadbirkorlik loyihasi, hamda moliyalashtirish uchun qo'llanilayotgan mahsulot turiga bog'liq bo'lishini tushunib yetish, jamiyat a'zolariga bu tizim imkoniyatlaridan to'la ravishda bahramand bo'lish imkonini beradi, hamda islom bankchiligining yanada rivojlanishini ta'minlaydi.

Islom banki duch keladigan xatarlar. Islom banki tomonlarning mavqe va rollariga qarab turli bosqichlarda turlicha xatar va tavakkalchilikka boradi. Tabiiyki, zamonaviy islom banklari xatar va tavakkalchilik darajasini kamaytirishning samarali vositalarini ishlab chiqishgan, hatto ayrim hollarda ular islom moliyasining asl mohiyatiga xos bo'lgan xatarlarni bo'lish/taqsimlash tamoyillariga muvofiq bo'lmaganligi tufayli islom bank-moliya sohasiga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi.

Shunday bo'lsa ham, har bir islom moliya mahsuloti bank tomonidan qabul qilinadigan turli tuman xatar va tavakkalchiliklarni namoyish etadi (bu esa, asosan kredit qaytmasligi xatari muammosiga ega an'anaviy banklardan farq qiladi). Masalan, agar islom banki mushoraka shartnomasi doirasida aksiyadorlik jamiyatiga kirsa, hamkorlik davom etguniga qadar zarar ko'rish xatariga ega bo'ladi. Murobaha bitimida bank mulkka (aktiv) egalik qilish davri mobaynida (ya'ni shu mulk sotilguncha) shu mulkni yo'qotish xatariga ega bo'ladi. Ijara shartnomalarida esa bank mulkka egalik huquqi mijozga o'tguniga qadar xatarga ega bo'ladi. Shu tariqa, islom bankchiligi tavakkalchilikning foydaga bo'lgan nisbati iqtisodiy jihatdan oqilona ekanligini namoyish etadi. Bunday bank tizimi mijozlarning ham, keng jamoatchilikning ham ehtiyojlarini qondiradi va boyliklarning adolatli taqsimlanishiga imkoniyat

yaratadi.

O'zbekistonda islom bank xizmatlari bozori faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilk qadamlar

Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramay, O'zbekistonda shu vaqtgacha Islomiy moliya sohasi Markaziy Osiyodagi qo'shni mamlakatlarga qaraganda deyarli rivojlanmagan, vaholanki ushbu sohaning rivojlanishida mamlakat juda katta salohiyatga ega. Buni yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Islom Taraqqiyot Banki Guruhi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki va b.) ekspertlari tomonidan e'tirof etgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ushbu yo'nalishda ba'zi bir ishlar amalga oshirildi.

Jumladan: Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) va uning guruhi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, xususan Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish Islom Korporatsiyasi (ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi (ITFC) va Islom tadqiqotlar va treninglar instituti (IRTI) mamlakatda islom moliyasi rivojlanishida o'z hissalarini qo'shgan holda, hozirgi kunga qadar 2 milliard AQSh dollaridan ziyod mablag'ni Islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish maqsadlariga yo'naltirgan.

Bundan tashkari, O'zbekistondagi bir nechta oliy o'quv yurtlari o'z ta'lim dasturlarini Islom moliyasiga doir fanlarni hisobga olgan holda tayyorlay boshladi. Shuningdek, joriy qonunchilikdan kelib chiqqan holda biznes vakillari ham islom moliya xizmatlarini taklif qilishni boshlab yubordi.

O'zbekistonda qator islomiy lizing kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Jumladan, 2019 yilda mamlakatda birinchi «O'zaro» islomiy sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini boshladi. O'zbekistondagina emas, balki MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lgan elektron-Murabaxa (Murabaxa savdo bitimi asosidagi moliyaviy mahsulot) platformasi ishlab chiqildi. IsBF (Islamic Business and Finance) nomli birinchi Islom moliya masalalari bilan shug'ullanuvchi kompaniya (asosiy faoliyati ushbu sohada konsalting xizmatlari ko'rsatish) tashkil etildi, islom moliyasi sohasida aholi savodxonligini oshirish maqsadida «Islom moliyasi» Telegram sahifasi va veb sayti ishga tushirildi. Taiba Lizing va Al-Mulk Kapital kabi lizing kompaniyalari esa kichik va o'rta biznes vakillariga Islom tamoyillari asosidagi ijara mahsulotlari taqdim qilishni davom ettirmokda.

Shuningdek, ta'lim sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda Islom moliyasi bo'yicha bir qancha treninglar o'tkazildi, o'zbek tilida Islom moliyasiga oid kitoblar nashr etildi.

Malayziyalik professor Sudin Horunning «Islomiy moliyalar va bank tizimi: Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti», qozog'istonlik iqtisodchi Yerlan Baydauletning «Islomiy moliya asoslari» va rossiyalik Rinat Bekkinning «Islom iqtisodiy modeli va zamon» kitoblari shular jumlasidandir.

Shuningdek, mamlakatda islom moliya xizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligini inobatga olgan holda ICDning Maslahat guruhi hozirgi kunda O'zbekistonning 6 ta tijorat banki, jumladan, Kapitalbank, Trastbank, Aziya Alyans bank, Agrobank, Qishloq Qurilish bank va Ipak Yo'li banklarida Islom darchalari (Islomiy moliya xizmatlari ko'rsatuvchi shoxobcha) ochish bo'yicha ish olib bormoqda. Ushbu darchalar 2021 yilning boshida ishga tushishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Aloqabank, Xalq banki, Universal bank va Davr banklarda ham islom darchalari ochilishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, islomiy moliyaviy xizmatlar sohasi O'zbekistonning porloq kelajagi uchun muhim omil, poydevor va rivojlanish istiqboli bo'ladi, natijada o'z madaniyatida Islomning chuqur ildizlarini aks ettirgan mamlakatga xorijiy investorlarning qiziqishi ortadi va hukumat ushbu imkoniyatdan xalq farovonligi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishida to'laqonli

foydalanishga erishishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonda islom moliya xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishga ishonamiz:

- xorijdan kelayotgan investisiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;
- bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish;
- aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash;
- mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash;
- ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini ko'tarish;
- Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;
- yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish;
- kambag'allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish;
- yangi yo'nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Solidjonov, D. (1990). TYPES OF READING AND WRITING SKILLS ON TEACHING. *Signal Processing*, 4, 543-564.
2. Solidjonov, D. Z. O. (2021). THE IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF INTERNET TECHNOLOGIES ON EDUCATION AT PANDEMIC TIME IN UZBEKISTAN. In *СТУДЕНТ ГОДА 2021* (pp. 108-110).
3. Nishonqulov, S. F. O. G. L., & Solidjonov, D. Z. O. G. L. (2021). Ta'lim biznesida raqamli innovatsion texnologiyalar. *Science and Education*, 2(6), 233-238.
4. Solidjonov, D. Z. (2021). THE IMPACT OF SOCIAL MEDIA ON EDUCATION: ADVANTAGE AND DISADVANTAGE. *Экономика и социум*, (3-1), 284-288.
5. Solidjonov, D. Z. O. G. L. (2021). STEAM TALIM TIZIMI VA UNDA XORIIY TILLARNI O'QITISH. *Science and Education*, 2(3).
6. Nishonqulov, S. F. O., Rajabboyev, B. O. O., & Mamasoliyev, J. O. O. (2021). OLIY O'QUV YURTLARIDA IQTISOD BO'YICHA QO'LLANMA: O'ZGARMAS" MA'RUZA VA BO'R" USULINI KO'RIB CHIQISH. *Scientific progress*, 2(3), 814-824.
7. Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021). ISLOM BANKI VA O'ZBEKISTON. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 766-775.
8. Solidjonov, D., & Nishonqulov, S. (2021). TALIM BIZNESIDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANISHI JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1. *ISSUE-3 (Part-1, 18-JUNE)*, 1, 195-199.
9. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). The role of information technologies in the development of the digital economy. *The role of information technologies in the development of the digital economy*.
10. Nishonqulov, S. F. O., Rajabboyev, B. O. O., & Mamasoliyev, J. O. O. (2021). DIGITALIZATION OF

- THE ECONOMY AND ITS NETWORKS. *INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES TO THE SECTOR OF THE ECONOMY. Scientific progress*, 2(3), 825-831.
11. Solidjonov, D., & Nishonqulov, S. (2021). APPLICATION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL BUSINESS JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1. *ISSUE-3 (Part-1, 18-JUNE)*, 1, 195-199.
 12. Ogli, N. S. F., & Ogli, R. B. O. (2021). The Digital Economy is The Basis For Forming A Favorable Investment Environment. *Eurasian Scientific Herald*, 1(1), 1-5.
 13. Nishonqulov, S., & Rajabboyev, B. (2021). OCHIQ TARMOQ KORXONALARINING BIZNES-MODELLARI.
 14. Farxodjon ogli, N. S., & Odil ogli, R. B. (2021). Raqamli iqtisodiyot almashinuvining resurslar sarfiga sakkizta tasiri. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(1), 53-56.
 15. Ogli, N. S. F., & Ogli, R. B. O. (2021). In The Context of Developing the Digital Economy Modern Forms of Employment. *Eurasian Scientific Herald*, 1(1), 11-16.
 16. Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
 17. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3), 35-43.
 18. Mulaydinov, F. M. (2021). CROWDFUND OPPORTUNITIES IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP. *Academic research in educational sciences*, 2, 23-32.
 19. Butaboyev, M., Urinov, A., Mulaydinov, F., & Tojimatov, I. Digital economy.
 20. Farkhod, M. (2020). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02).